



### Qonunchilikdagi o'zgartirishlar

O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-968-sonli Qonuni qabul qilindi.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksi 50-moddasi birinchi qismi quyidagi mazmundagi birinchi va ikkinchi qismlar bilan almashtirildi:

«Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yerga oid huquqiy munosabatlar, davlat mulki, davlatga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash va davlat byudjetidan undiruvlar bilan bog'liq ishlarda yoki prokurorning da'vo arizasi (arizasi) asosida qo'zg'atilgan ishlarda ishtirok etishi mumkin. Prokuror boshqa shaxslarning arizasi bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas.

Prokuror davlat manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

---

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-10-30 16:26:42